Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318116

materiallar to'plami

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA RIVOJLANTIRISH

Islomov Sherzod Eshquvvatovich, dotsent

Jizzax politexnika instituti, Jizzax, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarining "transport vositalari muhandisligi" yo'nalishi talabalarining kasbiy ko'nikmalarini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirishning ketma-ketligini aniqlik kiritishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Transport vositalari muhandisligi, auditoriya mashg'uloti, mustaqil ta'lim, kasbiy ko'nikmalar, ehtiyoj, motivatsiya, ijodiy faoliyat.

Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasida "individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish bilan bir qatorda, mustaqil ijodiy qobiliyatini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi [1].

Zamonaviy voqelik, jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar har qanday mutaxassisning modelini o'zgartirishni taqozo etadi. Respublikamizda Oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimiga o'tishning muhim vazifalaridan biri talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishdir. Oliy ta'lim tizimining davlat standarti talablariga muvofiq ta'lim faoliyati shakli sifatida mustaqil ish ta'lim jarayonining ajralmas qismidir.

Texnika oliy o'quv yurtlarining 60712500 "Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha muhandislar tayyorlash uchun belgilangan o'quv yuklamasining umumiy hajmi, auditoriya soatlari va mustaqil ta'lim soatlarining yillar kesimida o'zgarishi tahlilidan ko'rinadiki, 60712500 "Transport vositalari muhandisligi" ta'lim yo'nalishi o'quv rejalaridagi mustaqil ta'lim soatlari umumiy soatlarga nisbatan 2018-2019 o'quv yilida 42,4%ni, 2019-2020 o'quv yillarida 44,4%ni, 2020-2021 o'quv yilida 51.9%ni, 2021-22 va 2022-23 o'quv yillarida 53,5%ni tashkil qilgan [2].

1-jadval

60712500 "Transport vositalari muhandisligi" yo'nalishining o'quv rejasidagi soatlar miqdorining o'zgarishi

	Jami o'quv soatlari	Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim


Published: 10.11.2023

Cite this article: Islomov Sherzod Eshquvvatovich (2023). Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy ko'nikmalarini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318116

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

O‘quv reja tasdiqlangan o‘quv yili		Soat	Ulushi, %	Soatlar	Ulushi, %
2018-2019	6986	3894	55,7%	2960	42,4%
2019-2020	6912	3840	55,6%	3072	44,4%
2020-2021	6480	3120	48,1%	3360	51,9%
2021-2022	6480	3016	46,5%	3464	53,5%
2022-2023	6480	3016	46,5%	3464	53,5%
2023-2024	6480	3060	47,2%	3420	52,8%

Besh yil iJchda mustaqil ta’lim ulushi 42,4%dan 53,5%ga oshgan, o‘zgarish ko‘rsatgichi 11%.



1-rasm. 60712500 “Transport vositalari muhandisligi” ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasidagi mustaqil ta’lim soatlarining ortishi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31 dekabr 2020 yildagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli Qarorida belgilab berilganidek, o‘qitishning “kredit-modul tizimi”da o‘quv yuklamasi bakalavriatda - 40 - 50% auditoriya soati, 50 - 60% mustaqil ish soatiga bo‘linishi belgilab berilgan. Mavjud o‘quv rejadagi mustaqil ta’lim ulushining oshib borishi talabalarning o‘z ustida mustaqil ishlashlari va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga yo‘naltirish orqali ularda zarur kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilganligini bildiradi.

Auditorya mashg‘ulotlariga ajratilgan soatlarning bir vaqtning o‘zida qisqartirilishi bilan yangi o‘quv dasturlari va dasturlariga o‘tilishi o‘quv fanlarining ko‘pgina bo‘limlari va mavzularini o‘rganishda talabalarning mustaqil ishlari ulushining ko‘payishini oldindan belgilab qo‘ydi va ularning o‘quv faoliyatini tashkil etishning yangi yondashuvlarini izlashni, nafaqat ularning bilimlarini kuzatishni, balki va mustaqil ish jarayonini takomillashtirishni, samarali tashkil etishni taqazo etadi.

Talabalarning aqliy va ilmiy salohiyatini shakllantirish, talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini o‘z ustida mustaqil ishlash orqali rivojlantirish, topshiriq va vazifalarni tizimli tahlil qilish, talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash va talabalar mustaqil ishlashlari orqali kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun fanning metodologik ta’minotini ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari o‘qituvchilardan har bir talabaga indivudual yondoshish va talabani mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirish talab etiladi [3].

Talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini samarali qo‘llash maqsadlarida talabaning mustaqil faoliyatini boshqarish va o‘ziga ongli ravishda ta’sir ko‘rsatishni o‘z qo‘liga olishi quyidagi mahorat va ko‘nikmalar shakllanishi zarurati to‘g‘risida xulosa qilish imkonini berdi:

-ishlarni mustaqil tashkil etish (ishlarni rejalashtirish, shaxsiy vaqt va makonni tashkil etish, vazifalarni hal qilish texnologiyalari va usullarini tanlash uchun);

- shaxsda ijodiy qobiliyatlar – idrok, tafakkur, xayolot, individuallikni rivojlantirish; texnik tafakkuri asoslarini shakllantirish;


-o‘zini-o‘zi nazorat qilish (ish borishi va uning oraliq natijalarini monitoring qilish, vaziyatlarga adekvat munosabat bildirish, o‘zini nqzorat qilish);

-o‘zini o‘zi-baholash (ish natijalarini baholash) [4].

Talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosini tahlil etish shuni ko‘rsatdiki, og‘irlik markazini tayyor bilimlarni uzatishdan talabalarning ijodiy, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda bilimlarni mustaqil egallash ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘chirish zarur ekan. Chunki, talabalarda kasbiy ko‘nikmalar o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi, buning uchun esa ulardan kuzatuvchanlik, taqqoslash va tahlil qilish, aloqalar va bog‘liqlikni topish kabi ko‘nikmalari talab etiladi.

Talabalarning mustaqil ta’lim jarayonida kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot ishini olib borar ekanmiz shu o‘rinda mustaqil ta’lim muhitida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyati orqali kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish ketma-ketligini aniqlashtirishga ehtiyoj borligi namoyon bo‘ldi (2-rasm).

Kasbiy ko‘nikmalarni rivojlanishi uchun avvalo unda ejtiyoj uyg‘onmog‘i zarur – so‘ngra ehtiyoj ortidan faoliyat yoki harakat rejalashtiriladi.



2-rasm. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni

Ehtiyoj – talabalda kasbiy ko‘nikmalarni egallash uchun avvvalo unda ehtiyoj hissini uyg‘otish zarur.

Motivatsiya – Shaxsni harakatga va faoliyatgo undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi. Motivatsiya ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta’minlaydi.

Ijodiy faoliyat bu – talabalarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini qo‘llagan va ularning mazmunini aniq anglagan holda muhandislik jarayonlari va texnik ob’ektlarini maqsadli o‘zgartirish yoki loyihalarga qaratilgan aqliy faoliyati. **Ijod** – bu ta’riflash murakkab bo‘lgan so‘z. Agar inson qandaydir bir g‘ayrioddiy va shu bilan bir vaqtda ahamiyatli va foydali narsa yaratgan bo‘lsa, biz uni “ijod” deyiladi. Shunday qilib ijod jarayon sifatida emas, balki uning oqibati orqali aniqlanadi. Ijod dastlab inson tasavvurida vujudga keladi, so‘ngra unga oid muammolar bo‘yicha izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko‘rib chiqiladi, tajribalar o‘tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, farazlar qabul qilinadi. So‘ngra bu harakatga ya’ni **ijodiy faoliyat**ga aylanadi.

Kasbiy ko‘nikmalar - ijodiy faoliyat jarayonida yangi va o‘zgacha fikrlash, mustaqil va nostandart qaror qabul qilish orqali shaxsning muvaffaqiyatga erishishini ta’minlovchi individual qobiliyatidir.

Yuqoridagilardan umumiy hulosa qilib aytish mumkinki, talabalarning mustaqil ta’lim sharoitida kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning sifati pedagoglar tomonidan alohida tamoyillar va yondoshuvlar asosida uning tashkil etish metodikasining ishlab chiqilishi, tayyorlanishi, zarur tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarga aniqlik kitirish bilan va talabalar tomonidan uning bajarilishi sifati bilan ta’minlanadi.

Adabiyotlar

1. 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. 60712500 “Transport vositalari muhandisligi” (avtomobil transporti) ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi.

3. Mansurovna, M. L., & Eshquvvatovich, I. S. (2021). Study of the influence of operating factors of a vehicle on accident by the method of expert evaluation. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(1), 10-17.

4. Eshquvvatovich, I. S., & Sattorovich, Q. I. (2021). DETERMINATION OF THE MAIN FACTORS AFFECTING THE TECHNOLOGICAL EQUIPMENT OF MOTOR TRANSPORTATION ENTERPRISES. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(1), 1-9.

5. Eshquvvatovich, I. S., & Fayzullayevich, E. S. (2023). AVTOTRANSPORT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TAMOYILLARI VA ASOSIY TALABLAR. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(5), 1317-1324.